

KAVABATA YASUNARI ADABIYOTIDA O'ZIGA XOS KONSEPTLAR

L. Jalolova ¹*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada yapon adibi Yasunari Kavabata ijodiyotida o'ziga xos milliy konseptosferani hosil qilgan konseptlar tahlil qilingan. Asarlardagi konseptlar yapon madaniyati, yapon xalqining mentaliteti haqida ramziy qarashlarni yoritgan. Adib Yasunari Kavabata yapon xalqi va madaniyati kuychisi sifatida o'zining asarlarida aynan yapon mentalitetiga xos bo'lgan, alohida o'rin tutgan ob'yektlarni asarlarida estetik uyg'unlashtirganligiga oid tasvirlar keltirilgan. Yasunari Kavabata asarlarida asosan, yapon ayollari, ularning matonati, hayo va go'zalligi, tabiatga bo'lgan muhabbat, insoniy his – tuyg'ular bosh mavzuga aylanganligi ifodalangan.

Kalit so'zlar: konsept, konseptosfera, Yasunari Kavabata, ayol, yapon madaniyati, tabiat, oyna, xol, anor, tush

doi: <https://doi.org/10.2024/cw3jq67>

Kirish

Borliqdagi narsa hodisani anglash, mantiqiy va psixik harakatlarni qamrab oladigan faoliyatdir. Buning birinchi bosqichi ikki obyektни taqqoslash bir biridan ajratishni taqozo etadi. Keyingi bosqich biror ramzning xotirada boshqalari bilan o'xshashligi izlanadi. Mantiqiy faoliyatda yuzaga kelgan hodisa “tushuncha” ya'ni “konsept” atamasi tafakkur bilan bog'liq. Konseptni tafakkur bilan chambarchasligining sababi, predmetning inson ongida individual obraz hosil qilib, aniq predmet ma'nosidan uzoqlashib borishidir. A.F. Losevning fikricha, sof hukmda tushunchalar “mazmuniga” hech qanday ishora yo'q, shu sababli hukmda predmetni uning voqeligidan uzoqlashgan holda tasvvur qilishning uslubi va qonuniyati sifatida qaralishi lozim. Konsept – mental tuzilma, uning majmui konseptosferadir. Konseptosfera ma'lum bir xalqqa oid alohida o'rin tutgan predmet va hodisaga oid qarashlardir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Yasunari Kavabata ijodida bir nechta ahamiyatli konseptlar e'tiborga loyiq. Uning “Anor”, “Xol”, “Ayol tushlari” “Oynadagi Oy” kabi asarlari markazida tabiatga oid konseptlar va ayol roli ramziy tasvirlanadi.

Uning “Anor” hikoyasida anor hikoyaning butun bir ma'nosini yoritgan. “Anor” hikoyasida anor sharona konseptosferaga xos bo'lib, ramziy ma'nolar bildirgan. Hikoya qisqa bo'lsa-da, ramziy tasvirlar, personajlarning harakat va nutqida ramziy konseptlarni ham ko'rishimiz mumkin. Hikoya qahramonlari navqiron ikki yosh qiz – Kimiko, yigit – Kenkichi bo'lib, ular hikoyada bir birlarini yaxshi ko'rishni aytilmasa-da, nozik tasvirlar sharqona tarzda buni isbotini topgan. Kavabata hikoyasidagi anor muhabbat, qondoshlik ramzidir. Asarda Kenkichining tishlagan anorini Kimiko qo'lga olgan vaqtda “qip-qizarib ketishi” ham anorning ramziy ifodasidir.

Yorilgan joydan anor donalari quyosh nurida yaltiraydi

¹ Jalolova Laylo Shavkatovna, SamDCHTI talabasi

Anor nur va yorug'lik, muhabbat va baxt-saodat ramzidir.

Yasunari Kawabata ijodidagi "Xol" hikoyasida ham ayol obrazi nafis tasvirlanib, turmushdagi muammo, shaxsiy kechinmalar yoritilgan. Hikoyada Sayoka ismli qiz bo'lib, uning o'ng tomon bo'yin qismida xoli bo'lib, qiz qo'li bilan xolni ushlab o'ynashi yoshligidan odat bo'lib qolgan bo'ladi. Sayoka ushbu odatni turmush qurgandan keyin ham erining taqiqlarini eshitsa-da tashlay olmadi. Shu odati tufayli u turmush o'rtogi bilan uzoq vaqt birga yashay olmay ajrashishadi. Xol konsepti asarda yaxshilik belgisi hisoblanmagan, u inson taqdirini darz ketishiga sababchi omil.

Kawabata Yasunari hikoyasi turlicha nomlanishi asarning talqin jarayonlariga bog'liq. Hikoya "Akusai no tegami" Xudbin xotinning xati deb nomlanishi tub zamirida o'zining tushida xolni ko'rish turmushi va hayotidagi mulohazalari tushi haqidagi hikoyasida yoritiladi.

Muhokama va natijalar

Kawabata Yasunari ijodiyotini ko'plab olimlar o'rganishgan, asarlarida asosan insoniylik omillari kuchli tasvirlanib, tabiat va milliy madaniyatga sezilarli urg'u berilgan. Adibning "Oynadagi Oy" hikoyasida ham ayol tasviri va insoniy kechinmalar shuningdek, tabiat va inson o'rtasidagi metaforik o'xshatishlar tasvirlangan. Kawabata Yasunarining "Suigetsu" "Suvdagi Oy" hikoyasida yapon xalqining estetikasi hisoblanadigan realiyalarni uchratish mumkin. Ushbu hikoya ustida G.P.Boardman tadqiqot olib borgan va "The Moon in the Water: Understanding Tanizaki, Kawabata and Mishima"[3] nomli kitobida nafaqat ushbu asarni balki, Kawabata Yasunarining boshqa janrdagi asarlarini ham talqin qilgan. G.J.Matson "Early works of Kawabata Yasunari"[4] nomli ilmiy ishida Y.Kawabata asarida "suv" ni sintoizm simvoli sifatida qaraganligi yozilgan. K.Tsuruta "The Flow – Dynamics in Kawabata Yasunari's Snow Country"[5] nomli maqolasida "oyna" ni ikki asarda turli ma'no va obrazga egaligini isbotlagan.

Asarda turli ramziy o'xshatishlar bilan birga personajlar nutqi ham tagma'no holatni yuzaga keltirgan. Asar tahlildan kelib chiqib, hikoya nomidagi metaforik o'xshatish kuchli bo'yoqdorlikka ega bo'lib ikki xil ma'noda tushunsa bo'ladi. "Suvdagi Oyna" - Oynaning suvdagi aksi ya'ni suvning tekis, tinib turgan holatini oynaga o'xshatilishi tushunilsa, ikkinchi tomondan "Oynadagi Oy" nomidagi Oy bu – Kyoko ya'ni "Oynadagi Kyoko" kabi majoziy ma'noni bildirgan. Kyokoni Oyga qiyos etgan va oyna bu aynan marhum erining qo'loynasidir. Oy kuzning ramzi hisoblanib, kuz "g'amgin fasl" deb ataladi. Yapon poetik tasvirlarida Oy, gul, qor birgalikda go'zallik ramzidir. Oyni ta'riflashda bir nechta frazalar bo'lib, ushbu fraza orqali qaysi fasl nazarda tutilayotganini bilish mumkin. Masalan, kangetsu – qahraton qish faslidagi Oy, mei-getsu – kuzdagi to'lin Oy. Buddizm adabiyotida Oy realiyasiga nisbatan "mohiyatsiz narsa" frazasi ishlatiladi.

Adibning "Bambuk sasi, Shaftoli guli" hikoyasida bambuk hayot va eski xotiralar ramzi sifatida tasvirlanadi. Bambuk personajlarga o'tkan hayotining ramzi va undagi xotiralar ramzi misolida yoritilgan. Asarda jonlashtirish, epiteto kabi san'at turlari mohirlik bilan o'z ifodasini topgan.

Kawabata Yasunarining "Ayol tushlari" hikoyasida ham ayol, muhabbat va insoniy kechinmalar yoritilgan. Bosh qahramonlari Haruko va Kuhara bo'lib, ularning muhabbati va bir-birlariga bo'lgan ishonchi tasvirlangan.

Xulosa

Hikoyalar voqelikni aks etgan fotosuratlariga o'xshaydi. Ularda so'z detal, Sharq mumtoz poetikasi kabi kuchli ramziy ma'no yuklangan, shu unsurlar yordamida qahramonlar ichki olamini badiiy yuksaltirgan. Hikoyalar biografik metodga asoslanib yozilgan, real hayotda uchragan yoxud uchraydigan voqelik sodda qilib asoslangan. Milliy

o'ziga xoslik adabiy asarlarda uchraydigan xalq hayotining moddiy sharoiti, dala, tog', yer, kiyim-kechak barchasi milliy xoslik komponentlariga oiddir. Kawabata Yasunari adabiyotida ayol, muhabbat, anor, oy, oyna, tabiat kabi tushunchalar konsept sifatida olinib, ularning barchasi asarda asosiy ma'noni yuzaga keltirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Kurbonova, Gulnoza, & Borankulova, Samal (2022). 平安時代の子女教育・教養論の研究. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (Special Issue 24), 85-95.
- [2]. Курбонова, Г. (2021). Сравнительный анализ узбекских и японских народных сказок (На примере сказок «Золотой арбуз» и 『雀報恩の事』 – «О благодарности воробья»). *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 3 (80), 62–66. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/1784
- [3]. Boardman G.P. "The moon in the water: Understanding Tanizaki, Kawabata and Mishima". *The University Press of Hawaii*. 1992. 343 p.
- [4]. <https://open.library.ubc.ca> Matson.G.J. *The early works of Kawabata Yasunari*.1982.
- [5]. <https://www.jstor.org> Tsuruta. K. *The Flow- Dynamics in Kawabata Yasunari's Snow Country* – JSTOR. 1971.